

**YOSHLAR TARBIYASINING DAVLAT VA JAMIYATDA TUTGAN
MUHIM O'RNI VA AXLOQIY TARBIYANI SINGDIRISH JARAYONIDA
E'TIBORGА OLINISHI LOZIM BO'LGAN MUHIM JIHATLAR**

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqola bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar. Yoshlarning tarbiya masalasi va tarbiya, axloqni sindirishda e'tobor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy masalalarga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, bilim, ilmiy salohiyat, kelajak avlod, oila, zamonaviy kasb , g'oya , mafkura, g'oyaviy immunitet.

Annotation;

This article is about the work being done in Uzbekistan today in the framework of state youth policy. The issue of educating young people and education focuses on key issues that need to be addressed in breaking down morality .

Key words; youth, knowledge , scientific potential . future generation , family ,idea , ideology , ideological immunity.

Аннотация:

В данной статье речь идет о работе , проводимой сегодня в Узбекистане в рамках государственной молодежной политики . Проблема воспитания молодежи а образованию фокусируется на ключевых проблемах, которые необходимо решить для разрушения морали .

Ключевые слова: знание, молодость, научный потенциал, идея, семья, идеология идеологический иммунитет,

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 20 mlnga yaqinini yosh avlod vakillari tashkil etadi. Bu esa yoshlarning qanchalik katta kuch va davlatimiz kelajagi ana shu yosh avlod vakillarining qay darajada ilmiy salohiyatga egaligi, ma’naviy barkamolligi , tashqi mafkuraviy-g’oyaviy ta’sirlarga nisbatan o’z munosabatini to’g’ri va aniq ifodalay olishi , jismoniy hamda ruhiy barkamolligi bilan o’zaro chambarchas bog’liq masala ekanligini anglatadi. Respublikamiz miqyosida olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati va bu siyosat doirasidagi ishlar o’z navbatida yoshlarni aniq maqsad yo’lida birlashtirish , bo’sh vaqtini samarali tashkil etishga ularnig har jihatdan salohiyatli kadrlar bo’lib yetishishlari uchun o’ziga xos zamin va asos vazifasini o’tamoqda . Ayniqsa mustaqil hayotga qadam quyayotgan yigit –qizlarning o’zlari qiziqqan munosib ish va daromad manbai bilan ta’minalash , zamonaviy kasblarni o’zgatish,tadbirkorlik bilan shug’ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish uchun keng qamrovdagi chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda Xususan , birgina o’tgan 2021-yil davomida yoshlarning hayotiy muammolarini hal etish uchun davlat byujetidan 300 milliard so’m mablag’ ajratilganligi , ularning erkin tadbirkorlik bilan shug’ullanishi uchun 2,3 trillion so’m imtiyozli kreditlar taqdim etilgani, yoshlarni kasbga tayyorlov kurslarining, hamda ularning ilm-fan bilan shug’ullanishlari uchun barcha sharoitlarning yaratib berilayotganligi fikrimiz isbotidir. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yullagan Murojatnomasida takidlanganidek “Biz o’z oldimizga mamlakatimizda uchinchi renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni quygan ekanmiz buning uchun yangi Xorazmiiylar, Ulug’beklar, Navoiylar va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlar yaratib bermog’imiz lozim”. Albatta, bugun biz yoshlar masalasiga e’tibor qaratar ekanmiz ulardagи axloqiy tarbiyani dastlabki o’ringa quymasdan ilojimiz yo’q. Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o’ta dolzarb masalasi bo’lib kelgani ayni haqiqat. Muarixlarning yozishicha, Gerodot Sharqqa qilgan safarlari chog‘ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: «Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!” Muarix bu yozuvni o’qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa, kim bilsin qancha vaqt bo’lgan? Demak, yoshlar masalasi hamisha o’z dolzarbligini

yo‘qotmagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan. Muqaddas Islom ta’limotida ham yoshlar tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Islomning dastlabki o‘n uch yilida, ya’ni Makka davrida Muhammad sollallohu alayhi va sallam insonlarning ongu shuuriga Allohning yakkayu yagonaligini singdirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratganlar. Bu borada o‘z yonlariga 8–16 yoshli (Ali, Talha, Zubayr) kabi ko‘plab yoshlarni olib, avvalo, ularning ta’lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat bergenlar. Hadisi sharifda: “*Bolalarингизга одоб беринглар ва одобларини чироюли qilingлар*”, deyilgan (*Imom Muslim rivoyati*).

Buyuk vatandoshimiz shayxurrais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: “Yosh bola boshlang‘ich ta’lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san’atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega” (“*Islomiy tarbiya va uning falsafasi*”. *Muhammad Atiya, 197-bet*).

Bundan roppa-rosa bir asr oldin ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy tarbiya haqida kuyinib bunday degan: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga javoban: birinchi – uy tarbiyasidur. Bu Onalarning vazifasidur. Ikkinci – maktab va madrasa tarbiyasidur. Bu Otalar, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir.

Yoshlar tarbiyasini – hayot-mamot masalasi, deb ta’riflagan mutafakkir naqadar haq ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki tarbiyasi mo‘rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf yo‘q. Yoshlarning hayotda adashishi, tuzatib bo‘lmas xatolari tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in’ikosidir.

Bu borada olib borilgan izlanishlarning aksari shuni ko‘rsatmoqdaki, tarbiyada, avvalo, ota-onaning hissasi katta. Bejiz Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: “*Hech bir ota-ona farzandiga go‘zal tarbiyadan ko‘ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi*”, demagan.

Muxtasar aytganda, mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning ulg‘ayib, komil inson bo‘lishlari uchun Davlatimiz Rahbari 2021-yilni «**Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash**» yili deb e’lon qilishi munosabati bilan butun O‘zbekistonni olqishlar tutib ketdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har jihatdan yetuk ,yuksak ma’naviyatli va dunyoqarashi keng bo’lgan shaxsni tarbiyalashda albatta ta’lim –tarbiyaning o’rni beqiyos sanaladi .Zotan ta’lim – tarbiya jarayoni qadim davlatchiligidan tarixi davomida eng asosiy masala bo’lib kelgan „Mamun akademiyasi “ „Buxoro madrasasi”, „Ulug’bek observatoriysi” va bir qancha dunyoga nomi mashxur ilm va tarbiya maskanlarining aynan Turon zaminida tashkil topganligi ,yetuk ilm darg’alarining shu hududdan yetishib chiqib,ular yaratgan ilmiy asarlar va yangiliklar tasirida keyinchalik Yevropada uyg’onish davri boshlanganligi ham yuqoridagi fikrning qanchalik haqiqat ekanligini yorqin isboti sanaladi.

Darhaqqaqt so’ngi yillarda ta’lim –tarbiya jarayoni samaradorligini taminlash ,fan texnika yutuqlaridan ta’lim jarayonida unimli foydalanish o’qitishda yangi innovatsion metodlarni qo’llashga alohida e’tibor qaratilganligi fikrimiz isboti bula oladi.Prezidentimiz topshiriqlari ijrosi ularoq 2020-yil 26-iyun sanasida tashkil etilgan Yoshlar ishlari agentligi aynan shu vazifalar hamda yoshlarni vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, o’sib kelayotgsan yosh avlodni qonuniy manfaatlarini ijtimoiy siyosiy huquqlarini himoya qilish kabi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Albatta yoshlar tarbiyasi haqida so’z borar ekan ularning bugungi kundagi asrlar davomida saqlanib kelgan qadriyatlarimiz va odatlаримизга zid bulgan turli mafkuralar ,zararli odatlар va „ommaviy madaniyat”ning turli xil ko’rinishlaridan saqlash ham muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi .Bunday mafkuralar va odatlар doirasiga tushib qolgan yoshlar o’z erkin fikridan ,ijodiy qobiliyatlaridan yiroqlashadi .Albatta bugungi texnika zammonida ma’lumotlar oqimini butunlay cheklab quyish deyarli imkonsiz .Yoshlarni ushbu yod va zararli g’oyalardan saqlashning eng samarali Yo’llaridan biri bu yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirish vazifasidir .

Bunday immunitetga ega avlodni tarbiyalashda albatta oilaning roli ham beqiyosdir ,chunki farzand o’z shahsiyatini ota-onal orqali taniydi ,ular bolaning aqliy hamda harakter jihatidan rivojlanishida eng katta tasir ko’rsatuvchilardir .Undan tashqari yosh avlodning qay darajada ijtimoiylashuvi va mas’uliyatli shaxs bulib kamol topishida ham ota-onaning roli o’ta muhim .Zotan, farzand tasavvurida faqat ota-onagina yetuk shaxslar hisoblanadi .Bu jihatlar oila masalasining ham yoshlar tarbiyasida qanchalik etiborli va dolzarb masala ekanligi ,tarbiya masalasining eng avvalo ana shu bo’g’inga borib taqalishining rad etib bo’lmas isbotidir .

Umuman olganda farzand tarbiyasida davlat ,jamiyat oila ta’lim dargohlarining o’z o’rni va vazifalari mavjud. Har tomonlama yetuk ,jismonan va ruhan sog’lom yosh avlodni voyaga yetkazish bugun millatimiz oldida turgan asosiy va dolzarb masalalardan biri ekan ushbu institutlarning hamkorlikdagi harakati muhim sanaladi. Zero,ma’nан yetuk va avlodlar ruhini shod etguvchi munosib vorislarnigina yurt yuksalishi uchun o’z hissasini qo’sha oladi

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.Mirziyoyev . Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz . Toshkent-,,O’zbekiston “ -2017 .
2. Sh.Mirziyoyev . Asarlar . 1-jild .Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga kutaramiz. Toshkent-,,O’zbekiston “ -2017 .
3. Mavlonov A.Barkamol inson tarbiyasi .-T;O’qituvchi,1995.
4. A.Avloniy „turkey guliston yoxud axloq” .
5. A.Fitrat „Oila”